

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G.Numanova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education .....	877
<b>J.G.Numanova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods .....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini .....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels .....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari .....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari .....	898
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi .....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari .....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах .....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions .....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati .....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar .....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi .....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv .....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi .....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari .....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English .....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language .....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi .....	946
<b>S.A.Xaqnazarov</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana .....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslaming o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari .....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limi tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi .....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi .....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi .....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalinish .....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi .....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion .....	979



## MUALLIFLASHTIRISH KATEGORIYASINING MATN DOIRASIDA O'RGANILGANLIGI

## СТЕПЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ КАТЕГОРИИ АВТОРИЗАЦИИ НА УРОВНЕ ТЕКСТА

## DEGREE OF STUDY OF THE CATEGORY AUTHORIZATION AT TEXT LEVEL

Yigitaliyeva Zilola Muratovna

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b.dotsent  
ORCID ID 0000-0003-1681-2620*Annotasiya*

Mazkur maqolada mualliflashtirish kategoriyasining mazmun-mohiyati haqida so'z boradi. Mualliflashtirish axborotni uning manbaasi nuqtayi nazaridan saralash uchun qo'llanuvchi atam ekanligi ta'kidlanganadi. Bunda yozma hamda og'zaki nutq "o'zimni" yoki "boshganiki" mezonlari bo'yicha bolinadi. Birinchi shaxs nomidan uzatilayotgan axborot "o'zimga" tegishli hisoblanadi, axborot uchinchi shaxsga taalluqli, ya'ni "boshganiki", bo'lganida esa, uning manbasini "Aytishlaricha", "Olimlar ... deb hisoblaydilar", "Mutaxassislarining fikricha", "Mish-mishlarga qaraganda ..." v.b. ifodalar bilan ko'satib otiladi. Mualliflashtirish – bu bilim va fikr sohibiga illokutiv kuch subyektiga ishora sifatida baholanadi. Mualliflashtirish muallifning kommunikativ niyatini ifodalashiga hamda adresatni muallif intensiyasini angashiga yordam beradi. Shuningdek, maqolada mualliflashtirishning matn hosil qiluvchi xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Xususan, badiiy matnda uning yaxlitligini saqlovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ilmiy matnda esa u matnni shakllanishiga tizimli ta'sir ko'satadi va uning kompozitsion hamda ma'no strukturasini belgilab beradi.

*Annotation*

В данной статье говорится о сущности категории авторизации. Отмечается, что авторизация – термин, используемый для классификации информации с точки зрения ее источника. При этом письменная и устная речь разделяется по признаку «своя» и «чужая». Информация, передаваемая от имени первого лица, считается принадлежащей «себе», информация относится к третьему лицу, то есть «чужому», а когда она таковая, то ее источником является «По их мнению». Ученые полагают..., «По мнению экспертов», «По слухам...» и т.д. это показано выражениями. Авторизация оценивается как обращение к обладателю знаний и мнения, субъекту иллоктивной силы. Авторизация помогает выразить коммуникативный замысел автора и помогает адресату понять замысел автора. Также в статье анализируются текстообразующие особенности авторизации. В частности, оно признается важным фактором, сохраняющим целостность художественного текста. В научном тексте он оказывает системное влияние на формирование текста и определяет его композиционную и смысловую структуру.

*Abstract*

This article talks about the essence of the authorization category. It is noted that authorization is a term used to classify information in terms of its source. At the same time, written and oral speech is divided on the basis of "one's own" and "alien." Information transmitted on behalf of the first person is considered to belong to "oneself", the information belongs to a third party, that is, "stranger", and when it is such, its source is "In their opinion". Scientists believe..., "According to experts", "According to rumors...", etc. this is shown by expressions. Authorization is assessed as an appeal to the owner of knowledge and opinion, the subject of illocutionary force. Authorization helps express the author's communicative intent and helps the recipient understand the author's intent. The article also analyzes the text-forming features of authorization. In particular, it is recognized as an important factor preserving the integrity of a literary text. In a scientific text, it has a systemic influence on the formation of the text and determines its compositional and semantic structure.

**Kalit so'zlar:** kategoriya, muallif, retsipliyent, matn, muallif intensiyasi, badiiy matn, ilmiy matn, publisistik matn.

**Ключевые слова:** категория, автор, рецептиент, текст, авторский замысел, художественный текст, научный текст, публицистический текст.

**Key words:** category, author, recipient, text, author's intention, literary text, scientific text, journalistic text

**KIRISH**

Mualliflashtirish haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, nutqning yozma shakli nazarda tutiladi. Yozma nutq matn shaklida amal qilar ekan, uning muallifi ongli yoki ongsiz tarzda ma'lum lingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik vositalar tahlili muallifning nuqtayi nazari, munosabatini

matn doirasida yuzaga chiqishiga turki bo'ladi. Demak, muallifni matn yaratishda o'z nutqai nazarini yashirin yoki ochiq bildirishi, fikr va baholarini, munosabatini ifodalashi, yoki shunchaki neytral ma'lumot beruvchi sifatida harakat qilishi orqali modus shakllanadi.

Mualliflashtirish axborotni uning manbaasi nuqtayi nazaridan saralash, deb belgilanar ekan, unda yuqorida ta'kidlanganidek, "o'zimniki/boshqaniki" qabilidagi semantik qarama-qarshilik namoyon bo'ladi. Axborot birinchi shaxsdan, ya'ni so'zlovchi nuqtayi nazaridan "o'ziniki" bo'lib, uzatilayotgan bir paytda axborot muallifiga ishora qilish majburiy hisoblanmaydi. Agar so'zlovchi ma'lumot unga taalluqli ekanini ifodalashni joiz deb bilsa, "Men ... deb hisoblayman", "Menimcha", "Mening nuqtayi nazаримда ...", "Mening fikrimcha, ...", "Fikri ojizimcha, ..." v.b. ifodalar yordamida amalga oshirishi mumkin. Axborot uchinchi shaxsga taalluqli, ya'ni "boshqaniki", bo'lganida esa, uning manbasini "Aytishlaricha", "Olimlar ... deb hisoblaydilar", "Mutaxassislarning fikricha", "Mishmishlarga qaraganda ..." v.b. ifodalar bilan ko'rsatib o'tiladi. Ko'rindaniki, matn muallifiga ishora qiluvchi bunday leksik birliklar unga modus ma'no yuklaydi.

#### MATERIALLAR VA METODLAR

Bugungi kunda mualliflashtirish hodisasini matn doirasida o'rgangan ko'plab ishlar ham ko'zga tashlanmoqda. Bunda gap kesimida yig'ilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qilmoqda. Matn modalligi, muallif obrazi va subyektivlik tushunchalari tahlillarda yondosh tushunchalar sifatida qo'llaniladi.

Rus tilshunosligida mualliflashtirish hamda persuazivlik kategoriyalari bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar ichida O.N.Kopitovning "Matnda modusning kvalifikativ ma'nolarining aloqasi (mualliflashtirish va persuazivlik)" nomli nomzodlik dissertatsiyasi katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Olimning fikriga ko'ra, modus "mantiqiy-psixologik o'zgaruvchanlikdir, muallifning tinglovchiga yoki nutq subyektlarining, xususan aktant, personaj, qahramonlarning matnda ifodalangan propozitsiya yoki undagi presuppozitsiyalarga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bunday kommunikativ jarayon "muallif-o'quvchi" o'qi atorifda sodir bo'ladi [2, 12]. O.N.Kopitovning tadqiqot natijalaridan olgan xulosalaridan ko'rindaniki, "modus nafaqat operativ vazifalarni bajaradi va ifoda diktumini taqdim etadi, balki u tugal va kommunikatsiyaga yo'naltirilgan matnni ham hosil qiladi. Demak, mualliflashtirish kategoriysi matn yaratishda muhim o'rinn tutadi.

"Mualliflashtirish – bu bilim va fikr sohibiga, illokutiv kuch subyektiga ishoradir, shuningdek, u biror bir holatni aniq bir shaxsga tegishliligi haqidagi ma'lumotni ham o'z ichiga oladi" [2,9], deb yozadi O.N.Kopitov. Olim mualliflashtirish boshqa modus ma'nolar bilan, xususan persuazivlik bilan aloqada, muallifning kommunikativ niyatini ifodalashiga hamda adresatni muallif intensiyasini anglashiga yordam berishini e'tirof etadi.

Shunday qilib, O.N. Kopitovning ishlarida mualliflashtirishning matn hosil qilish vazifasi va uning kommunikativ-pragmatik tabiatiga urg'u beriladi hamda matnda modus ma'no ifodalashda xizmat qilishi aytildi.

Badiiy janrga mansub matnda mualliflashtirish kategoriysi boshqa matn turlariga nisbatan yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Garchi muallif badiiy matnda shaxsiy qarashlarini bevosita bayon qilmasa-da, kitobxon "matnni muallifning pozitsiyasi, uning hayot haqidagi bilim va g'oyalari, dunyoqarashi" [5] ifodasi sifatida qabul qiladi. Vaholanki, muallif, ayniqsa prozaik matn muallifi, har doim ham o'z fikr va hissiyotlari dunyosidan kelib chiqib so'zlamaydi va yozmaydi. U ko'pincha o'z matni tarkibida bevosita yoki bilvosita sitatalar, boshqalar fikri va konsepsiyalari, dastur va syujetdarni so'zlab berish orqali o'zganining qarashlarini keltiradi. Bunda u o'zga muallif dunyosiga taalluqli mulohazalarni qo'llab-quvvatlaydi yoki inkor etadi, yoki ularni izohlaydi, o'z dunyosiga hamohang bo'lgan yoki bo'lмаган emotsiyani qidiradi. O'zga fikriga iqtibos keltirish bilan muallif ushbu qarashlarni tartibga solishi va ularning dunyoqarashini, o'zga dunyo liniyasini shakllantirishi kerak. Badiiy janrga mansub matnda mualliflashtirish kategoriysi boshqa matn turlariga nisbatan yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Garchi muallif badiiy matnda shaxsiy qarashlarini bevosita bayon qilmasa-da, kitobxon "matnni muallifning pozitsiyasi, uning hayot haqidagi bilim va g'oyalari, dunyoqarashi" ifodasi sifatida qabul qiladi. Vaholanki, muallif, ayniqsa prozaik matn muallifi, har doi mham o'z fikr va hissiyotlari dunyosidan kelib chiqib so'zlamaydi va yozmaydi. U ko'pincha o'z matni tarkibida bevosita yoki bilvosita sitatalar, boshqalar fikri va konsepsiyalari, dastur va syujetdarni so'zlab berish orqali o'zganining qarashlarini keltiradi. Bunda u o'zga muallif dunyosiga taalluqli mulohazalarni qo'llab-quvvatlaydi yoki inkor etadi, yoki ularni izohlaydi, o'z dunyosiga

## TILSHUNOSLIK

hamohang bo'lgan yoki bo'limgan emotsiyani qidiradi. O'zga fikriga iqtibos keltirish bilan muallif ushbu qarashlarni tartibga solishi va ularning dunyoqarashini, o'zga dunyo liniyasini shakllantirishi kerak. Shuningdek, ularga persuaziv, baholovchi, aktualizatsion munosabatini qo'shish va bularning barini matnning asosiy g'oyasi tomon yo'naltirish matnda modusni shakllanishiga turki bo'ladi. Bunday vazifalarni bajarish publisistik yoki ilmiy matn muallifiga emas, balki badiiy matn muallifiga qiyinchilik tug'diradi. Ko'plab ilmiy adabiyotlarda badiiy matn doirasida mualliflashtirishning vazifasi va xususiyatlari masalasi tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi. Xususan, V.V.Filatova mualliflashtirishni badiiy adabiyot materiallari asosida o'rganadi. Olma mualliflashtirish "badiiy diskursni shakllantiruvchi usul, muallifning individual bayon qilish usulining ko'rsatgichidir" [7,9], degan g'oyani ilgari suradi. V.V.Filatova mualliflashtirishni matn kategoriyalari qatoriga kiritmasa-da, uning matn hosil qilishdagi ahamiyatini yuqori baholaydi. Mualliflashtirishning ko'p subyektivlik, matn modalligi, kogeziya, segmentatsiyalarni shakllanishida muhim, deb belgilaydi. Mualliflashtirishni ifodalovchi hamda matnga subyektiv ma'no beruvchi asosiy birlik esa mualliflashtirilgan gapdir, deydi V.V.Filatova. Mualliflashtirish tushunchasiga G.A.Zolotova tomonidan berilgan ta'rifga asoslangan holda, V.V.Filatova mualliflashtirilgan gaplarning quyidagi semantik guruhlarini farqlaydi: 1) (vizual hamda audial) idrok bilan bog'liq gaplar; 2) mental faoliyatni ifodalovchi gaplar; 3) nutqni ifodalovchi gaplar; 4) bahoni ifodalovchi gaplar. Ushbu tasnif nisbiy bo'lib, u inson faoliyati bilan bog'liqdir. Bunday konstruksiyalar semantik jihatdan bir biki bilan bog'lanib, badiiy matnni yaralishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, V.V.Filatovaning talqinida mualliflashtirish matn hosil qiluvchi, matn yaxlitligining muhim omili sifatida gavdalananadi.

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mualliflashtirish haqida so'z borganida, Ye.A.Bajenovaning mazkur tushuncha bilan bog'liq qarashlari ham yodga olinadi. Ye.A.Bajenova o'zining ishlarida mualliflashtirishni ilmiy matn doirasida o'rganadi. Olma ilmiy matnni murakkab tuzilishga ega politekstual tizim ekanligini ta'kidlaydi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ekstralengvistik omillar bilan bog'liqligida, deb biladi. Bu omillar ichida ilmiy-kognitiv komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular M.P.Kotyurova tomonidan epistemik vaziyat termini ostida umumlashtirilgandir. "Epistemik vaziyat - kommunikativ-kognitiv faoliyatning ontologik, metodologik, reflektiv va pragmatik jihatlarining jamlanmasidir. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, ilmiy nutqni shakllanishiga tizimli ta'sir ko'rsatadi va uning kompozitsion hamda ma'no strukturasini belgilab beradi." [1,19]

Epistemik vaziyatning reflektiv jihatni alohida ahamiyatga molik hisoblanadi. Zero, refleksiya lug'atlarda "inson ongi, ruhi, tafakkuri, qalbi, aqli va fikriga taalluqli hodisa va konsepsiyalarni qamrab oluvchi tushuncha" [8] sifatida talqin qilinadi. Demak, ilmiy va nazariy bilim va konsepsiylar sohibi, muallifi reflektiv jarayonni amal oshiruvchi sifatida ong, tafakkur, aql bilan ish olib boradi. Bu esa ilmiy uslubga mansub matnni shakllantirishdagi eng muhim omil sanaladi. Ilmiy matnning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu uning pragmatik yo'naltirilganligidir. O'zbek tilshunosligida ilmiy matnni sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini monografik planda yoritgan, keng ko'lamma tahlil qilgan olim professor M.Hakimovning "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" [6] nomli ishlarini bu borada alohida e'tirof etish lozim.

Garchi ilmiy nutq modusga zid bo'lgan abstraktlik, umumiylilik, bayonning mantiqiyligi, xolisligi, xissiyotlarni minimal darajada ifodalanishi kabi sifatlar orqali tavsiflansa-da, unda ham subyektiv ma'nolarni turli yo'sinda ifodalanishi kuzatiladi. Bunda aynan modusning mualliflashtirish kategoriyasi muhim o'rinn tutadi.

Rus tilshunosi Ye.M.Kuzmina ilmiy diskursga dior maqolasida sof ilmiy nutq borasida fikr yuritadi va uni analitik prozaga qiyoslaydi. "Sof ilmiy nutq analitik prozaga o'xshaydi, u terminlar va atoqli otlarning paradigmatik xususiyatlarini, ularning yuqori konnotativlik darajasini, mantiqiy taqsimlangan, izchil sintaksisni taqozo etadi," [4,4] deb yozadi muallif. Shunday bo'lsa-da, ushbu xususiyat barcha ilmiy matnlarga taalluqli emas. Ilmiy matnlar janri va sohasiga ko'ra bir biridan farqlanar ekan, ularda modus ifodalash imkoniyati ham o'zgarib boraveradi. Xususan, "gumanitar fanlarga oid ilmiy matnlarda eksplitsit moduslar uchun keng ifoda maydoni mavjud bo'lib, ularda muallif haqiqatni bayon qilishga boshqa ilmiy matnlardagidek davogarlik qilmaydi." [4,4] Bunda modusning mualliflashtirish hamda persuazivlik kategoriyalari muhim rol o'yaydi. Kuzmina muallifning ilmiy matnga ta'sirini quyidagicha izohlaydi: "ilmiy-ommabop bayonlarda, semantik "lakunlar", sof ilmiy uslub kanallari shaklan kengayadi va boy mazmun bilan to'ladi, qisilgan, quruq

ishoralar keng yoyiladi, nomutaxassislar uchun ham tushunarli bo'lgan sinonim va tasviriy konstruksiyalar qo'llanadi, bir so'z bilan aytganda, tadqiqot predmetiga nisbatan matn hajmi oshadi, sof ilmiy matndan farqi uning modusida ko'rindi." [4,4] Shunday qilib, ilmiy yo'sinda yaratilgan matnlarda mualliflashtirish va persuaziylit kategoriyalarining vazifasi va ahamiyati matnning qaysi soha va janrga taalluqli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Matnlar janrdan-janrga o'zgarganida, moduslar soni ham o'zgarib boradi. Shu o'rinda O.N.Kopitovning tadqiqot natijasi sifatida keltingan xulosalarini qayd etish o'rinnlidir: "aniq biror-bir janrga xos modus mavjud emas, faqatgina aniq bir soha nutqiga taalluqli matnni shakllantiruvchi modus ma'nolar ko'rsatkichlari va modus-diktum munosabatlarini tashkil etuvchi shakllar hamda individual, aniq bir muallif uslubiga xos modus repertuari mavjud" [3,18].

### XULOSA

Shunday qilib, mualliflashtirish matn bilan bog'lab o'rgangan ishlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mualliflashtirish bu matnning pragmatik tarkibiy qismidir. Unda muallif pozitsiyasi o'z ifodasini topadi. Muallif lingvistik vositalar yordamida vogelik hodisalarini ijtimoiy va individual usullarni birlashtirgan holda tafakkur qiladi va bunda retsipyentning shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баженова Е. А. Научный текст как система субтекстов: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Екатеринбург: Урал. гос. ун-т им. А. И. Горького, 2001.
2. Копытов О. Н. Взаимодействие квалификативных модусных смыслов в тексте (авторизация и персуазивность): Автореф. дис. ... канд. филол. наук: Дальневост. гос. ун-т. Владивосток, 2003.
3. Копытов О.Н. Текстообразующая роль модусных смыслов на фоне сферных различий (на материале современной прозы). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Великий Новгород 2014.
4. Кузьмина Екатерина Михайловна. Субъективная модальность в научном дискурсе: семантика и средства выражения.
5. Сидорова: М.Ю. Авторизация. <http://www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127644> (Мурожаат санаси: 31.05.2023, 08.40)
6. Ҳакимов М. Узбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз..дис. - Тошкент, 1993
7. Филатова В. В. Авторизация предложения в художественном тексте (на материале творчества Сергея Довлатова): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Нижегор. гос. пед. ун-т. Н. Новгород, 2000.
8. [https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic\\_synonyms/154187/%D1%80%D0%B5%D1%84%D0%BB%D0%B5%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%80%D1%83%D1%8E%D1%89%D0%B8%D0%B9](https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_synonyms/154187/%D1%80%D0%B5%D1%84%D0%BB%D0%B5%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%80%D1%83%D1%8E%D1%89%D0%B8%D0%B9)